

Mutallibjonov Ma'rufjon Mutallibjon o'g'li,
Andijon shahridagi Prezident maktabi tarbiya fani
o'qituvchisi

O'QITUVCHINING XULQ-ATVOR MADANIYATI VA TASHQI KO'RINISHINI O'QUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI (O'ZBEK ADIBLAR ASARLARI MISOLIDA)

UO'K: 39.395

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2024_ISSUE_9_4](https://doi.org/10.34920/so/vol_2024_issue_9_4)

MUTALLIBJONOV M.M. O'QITUVCHINING XULQ-ATVOR MADANIYATI VA TASHQI KO'RINISHINI O'QUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI (O'ZBEK ADIBLAR ASARLARI MISOLIDA)

Mazkur maqola o'qituvchining xulq-atvor madaniyati va tashqi ko'rinishining ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida fikr yuritadi. Xususan, o'qituvchi o'z shaxsiyatini namoyon etish jarayonida o'quvchilar va atrofdagilar uchun namunaviy qiyofa yaratishi lozimligi tahlil qilinadi. Xulq-atvor madaniyati o'qituvchining kasbiy mahorati, psixologik tayyorgarligi va axloqiy qadriyatlariga asoslanadi. Shuningdek, o'qituvchining tashqi ko'rinishi ham o'quvchilarda estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada o'qituvchi uchun professional xulq-atvor qoidalari, tashqi ko'rinishning muhim jihatlari va bu omillar o'quv jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi xususida ilmiy tahlillar keltirilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: xulq-atvor madaniyati, tashqi ko'rinish, kasbiy mahorat, psixologik tayyorgarlik, axloqiy qadriyatlar, professional xulq-atvor, estetik did, sog'lom muhit, o'qituvchi qiyofasi, pedagogik etiket.

МУТАЛЛИБЖОНОВ М.М. ЗНАЧИМОСТЬ КУЛЬТУРЫ ПОВЕДЕНИЯ И ВНЕШНЕГО ВИДА УЧИТЕЛЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ УЗБЕКСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ)

В данной статье обсуждается важность культуры поведения и внешнего вида учителя в образовательном процессе. В частности, анализируется необходимость создания учителем образцового облика для учеников и окружающих в процессе выражения своей личности. Культура поведения основывается на профессиональных навыках учителя, его психологической готовности и моральных ценностях. Более того, внешний вид учителя также способствует формированию эстетического вкуса у учеников. В статье представлены научные анализы по поводу правил профессионального поведения учителей, ключевых аспектов внешнего вида и того, как эти факторы влияют на учебный процесс.

Ключевые слова и понятия: культура поведения, внешний вид, профессиональные мастерство, психологическая готовность, моральные ценности, профессиональное поведение, эстетический вкус, здоровая среда, образ учителя, педагогический этикет.

MUTALLIBJONOV M.M. THE IMPORTANCE OF THE CULTURE OF BEHAVIOR AND APPEARANCE OF THE TEACHER IN THE EDUCATIONAL PROCESS (BASED ON THE EXAMPLE OF WORKS OF UZBEK WRITERS)

This article discusses the importance of a teacher's behavior culture and appearance in the educational process. In particular, it analyzes the need for a teacher to create an exemplary image for students and those around them in the process of expressing their personality. The behavior culture is based on the teacher's professional skills, psychological readiness, and moral values. Moreover, a teacher's appearance also contributes to the development of aesthetic taste in students. The article presents scientific analyses regarding the professional behavior rules for teachers, the key aspects of appearance, and how these factors impact the learning process.

Key words and concepts: behavior culture, appearance, professional skills, psychological readiness, moral values, professional behavior, aesthetic taste, healthy environment, teacher's image, pedagogical etiquette.

“Ta’lim – sohalar ichida eng dolzarbi, maktab – eng muhimi bo’lsa, o’qituvchilik kasblar orasida eng ulug’idir. Shaxsan men o’qituvchi deganda, o’zim uchun aziz va qadrli bo’lgan zotlarni, yuz-ko’zidan nur yog’ilib turadigan mo’tabar insonlarni tasavvur qilaman. Ular zamonamizning eng ilg’or kishilari, jonkuyar, vatanparvar, xalqparvar insonlardir. Shu sababli xalqimiz o’zining eng katta boyligini – farzandlari tarbiyasini o’qituvchilarga ishonib topshiradi”¹.

***O’zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev.***

Kirish.

O’zbekiston ta’lim tizimida o’qituvchining o’rni va nufuzi haqida ko’plab yirik islohotlar amalga oshirilmoqda, va bu o’z navbatida pedagoglarning kasbiy imidjini, xulq-atvorini va tashqi ko’rinishini ham yangicha talablarga moslashtirishni talab qilmoqda. Ta’lim jarayonida o’qituvchining shaxsiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyatga ega. O’qituvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, o’qituvchi ularning axloqiy va estetik tarbiyasiga ham bevosita ta’sir ko’rsatadi. Bu jarayonda o’qituvchining xulq-atvori va tashqi ko’rinishi alohida o’rin tutadi. O’qituvchi nafaqat bilim manbai, balki yosh avlod uchun namunaviy shaxs sifatida namoyon bo’ladi. Shuning uchun o’qituvchining o’zini tutishi, odob-axloq qoidalariga rioya qilishi va tashqi ko’rinishi o’qituvchilar oldida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xulq-atvor madaniyati va tashqi ko’rinishning ta’lim jarayonidagi o’rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilish bugungi kunda

pedagogik faoliyatning muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda ta’lim sohasida o’qituvchining nafaqat kasbiy bilimlari, balki uning shaxsiyati, xulq-atvori va tashqi ko’rinishi ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda o’qituvchining namunaviy shaxs sifatida rol o’ynashi muhimdir. Globalizatsiya va axborot texnologiyalari rivojlanishi davrida o’qituvchilarning e’tibori faqatgina dars mazmuniga emas, balki o’qituvchining o’zini tutishiga, tashqi qiyofasiga ham qaratilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda estetik did va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda o’qituvchining o’rni yanada ortib bormoqda. Shu sababli o’qituvchining xulq-atvor madaniyati va tashqi ko’rinishi masalasi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi, chunki bu omillar o’qituvchilarning shaxsiy rivojlanishi va sog’lom muhit shakllanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Bu borada davlatimiz tomonidan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, **ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ** 2024, 9 (142)

¹ Xalq so’zi gazetasi. 2024 yil 1-oktabr, 201 (8824). www.xs.uz

“Pedagogning maqomi to’g’risida”gi qonun shuningdek, O‘zbekiston davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksi jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilindi. Unga ko’ra, davlat xizmatchisining tashqi ko’rinishi mehnat sharoitlari va xizmat turiga qarab, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo’lishi lozim. Davlat tashkilotlarida barcha xodimlarga ish joyida ularning siyosiy va mafkuraviy qarashlarini yoki dinga munosabatini aks ettiruvchi liboslarda bo’lish yoki belgilarni taqib yurish taqiqlanadi.

Mavzu bo’yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik etiket va o’qituvchining tashqi ko’rinishi o’quvchilarda ishonch, hurmat va ijobiy munosabat shakllanishida katta rol o’ynashi qayd etilgan.

Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asari¹ – Ushbu asarda davlat boshqaruvi va rahbarlik mahorati bilan bir qatorda, ilmiy va ma’naviy rahbarlarning (ustoz va murabbiylarning) xulq-atvori ham alohida qayd etilgan. Nizomulmulk o’z asarida ilmiy va axloqiy rahbarlarning o’zini tutishi, odobi va tashqi ko’rinishi jamiyat oldida qanday ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, rahbar va ustozlar o’z nafsini tiyadigan, odobli, namunali shaxs bo’lishlari kerak, chunki ular shogirdlari va xalq uchun o’rnakdir.

Abdurauf Fitratning «Oila» asari² – Bu asarda oila va tarbiya masalalari chuqur yoritiladi. O’qituvchilarning xulq-atvori, shaxsiyati va tashqi ko’rinishi ham tarbiyaviy jarayonda muhim o’rin tutishi qayd etilgan. Fitrat o’qituvchi va tarbiyachilarning odobi va tashqi ko’rinishi o’quvchilarga bevosita ta’sir ko’rsatishini va ularning ma’naviy rivojlanishida katta rol o’ynashini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asari³ – Navoiy bu asarida insoniy fazilatlar, odob-axloq va tarbiya masalalarini keng tahlil qiladi. O’qituvchilarning xulq-atvori va tashqi qiyofasi haqida gapirganida, u odobli, madaniyatli va pok inson bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi. Navoiy fikricha, ilmiy rahbar yoki ustozning yax-

shi odobi va tashqi ko’rinishi shogirdlari uchun o’rnak bo’lishi kerak.

O‘zbekistonlik olimlar orasida o’qituvchining xulq-atvori, tashqi ko’rinishi va uning tarbiyaviy ahamiyati mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar ham mavjud.

Masalan, To’xtamurod Jurayevning pedagogika bo’yicha olib borgan ilmiy ishlari o’qituvchining axloqiy va estetik jihatlariga alohida e’tibor qaratgan. U o’zining “Pedagogik madaniyat va ta’lim jarayoni” asarida o’qituvchining madaniyati, kasbiy etikasi va tashqi qiyofasi o’quvchilarga qanday ta’sir ko’rsatishini keng o’rgangan. Jurayevning tadqiqotlarida o’qituvchining tashqi ko’rinishi va shaxsiy odobi o’quvchilar uchun namunaviy ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

Shuningdek, Murod Musayev ham o’zining “O’qituvchining professional etikasi va tarbiyaviy roli” nomli tadqiqotlarida o’qituvchining axloqiy qadriyatlarini, xulq-atvori va tashqi ko’rinishi o’quvchilarni tarbiyalashda qanday ahamiyatga ega ekanligini chuqur tahlil qiladi. Musayevning tadqiqotlarida o’qituvchining kasbiy madaniyati va tashqi qiyofasi nafaqat o’quvchilarga, balki butun ta’lim muhitiga ta’sir ko’rsatishi ilmiy asosda yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi. o’qituvchilarning xulq-atvori va tashqi ko’rinishining ta’lim jarayoniga ta’sirini o’rganish, ushbu omillarning o’quvchilar tarbiyasidagi o’rni va ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqotda ustoz-shogird munosabatlarining ta’lim sifati va o’quvchilarni tarbiyalashdagi roli tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o’qituvchining shaxsiy madaniyati, axloqiy holati va tashqi qiyofasining o’quvchilar ma’naviy rivojlanishiga ta’siri ham o’rganiladi.

Tadqiqotning obyekt. ta’lim jarayonida o’qituvchilarning xulq-atvori, tashqi ko’rinishi va shaxsiy madaniyatining o’quvchilarga ta’sir qilish jarayonidir. Tadqiqotda o’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi munosabatlar, ustoz-shogird munosabatlari hamda o’qituvchilarning kasbiy axloqi va tashqi qiyofasining ta’lim va tarbiya jarayoniga ta’sir ko’rsatish jihatlarini o’rganiladi. O’qituvchining axloqiy fazilatlarini va madaniyati ta’limdagi muvaffaqiyatga qanday ta’sir qilishi ham tadqiqot obyektini sifatida ko’riladi.

Tadqiqotning predmeti: o’qituvchining xulq-atvori, tashqi ko’rinishi va shaxsiy madaniyati bilan o’quvchilarning ta’lim va tarbiya

¹ Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asari. - Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2008 yil.

² Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 1998.

³ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulubi. – Toshkent: “Yoshlar” nashriyoti uyi, 2018.I

jarayoniga bo'lgan munosabatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdir. Tadqiqotda o'qituvchining kasbiy axloqi, pedagogik madaniyati va tashqi ko'rinishining o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga, shuningdek, ularning bilim olish jarayoniga ta'siri chuqur o'rganiladi.

Tadqiqotda tizimlilik, umumiylik, qiyosiy-tahlildan foydalanildi. Shu bilan birga, ustozshogird munosabatlari orqali o'quvchilarda motivatsiya va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlari ham tahlil qilinadi.

Maqolaning ilmiy yangiligi.

o'qituvchining xulq-atvori, tashqi ko'rinishi va shaxsiy madaniyatining ta'lim jarayoniga ta'siri bo'yicha ilgari kam o'rganilgan jihatlarni yangi nuqtai nazardan tahlil qilishidir. Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy yangiliklar kiritilgan:

O'qituvchi shaxsiyatining tarbiyaviy ta'siri – o'qituvchining axloqiy fazilatlarini, shaxsiy madaniyati va tashqi ko'rinishi o'quvchilar ma'naviy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida chuqur ilmiy tahlillar kiritilgan. Ilgari ta'lim jarayonida o'qituvchi faqat bilim beruvchi sifatida ko'rilgan bo'lsa, ushbu maqolada uning ma'naviy va axloqiy yetakchi sifatidagi roli tahlil qilinadi.

Ustozshogird munosabatlarining zamonaviy pedagogikada o'rni – bu mavzu bo'yicha yangi pedagogik yondashuvlar va tadqiqotlar orqali ustozshogird munosabatlarining ta'lim sifat va tarbiya jarayonidagi ahamiyati chuqur o'rganilgan.

O'qituvchining tashqi ko'rinishi va ta'lim jarayoni – o'qituvchining tashqi qiyofasining o'quvchilarga psixologik va tarbiyaviy ta'siri haqida ilmiy yangiliklar kiritilgan. Bu jihat ta'lim tizimida ilgari kam o'rganilgan va bu maqola ushbu masalaga ilmiy asoslangan yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Axloqiy qadriyatlar va pedagogik madaniyat – o'qituvchining axloqiy fazilatlarini va pedagogik madaniyatining o'quvchilar shaxsiyatiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri haqida yangi nazariy va amaliy dalillar taqdim etilgan.

Asosiy qism. O'qituvchining xulq-atvor madaniyati va tashqi ko'rinishi o'quv jarayonining muhim qismidir. U nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiya beruvchi sifatida ham namuna ko'rsatadi. Bu jihatlarda o'quvchilarning xulq-atvori va o'qishga bo'lgan munosabatini shak-

llantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xulq-atvor madaniyati, avvalo, o'qituvchining ichki madaniyatini aks ettiradi. O'qituvchi o'zini qanday tutishi, boshqa odamlar bilan qanday muomala qilishi, qoidalar va odob-axloq normalariga rioya qilishi uning ma'naviy darajasini belgilaydi. O'quvchilarga namuna bo'lish uchun o'qituvchining: Hurmat-izzat, ochiqlik va halollik kabi qadriyatlarni ko'rsatishi, Professional vazifalarga jiddiy munosabatda bo'lishi, Darsda va undan tashqarida o'zini tutish qoidalariga amal qilishi zarur. Yana bir muhim e'tiborimiz o'qituvchining tashqi ko'rinishi uning umumiy imidjining ajralmas qismi ekanligidir. Tashqi ko'rinish o'qituvchining kasbiy rolga mos bo'lishi kerak, chunki bu uning professionalligini va o'quvchilarga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Tashqi ko'rinishda e'tiborga olinadigan jihatlarni aytib o'tamiz. Darslarda kiyiladigan kiyim o'ziga xos odob doirasida va professional muhitga mos bo'lishi lozim. Kiyim va tashqi ko'rinish samimiylik va soddalikni ifodalashi muhim.

Bugun barcha ta'lim muassasalarida "Dresskod"ga amal qilish juda muhimdir. Har bir inson o'ziga mos va hos kiyimni kiyish kerak. Insonni kiygan libosi uni kimligini anglatib turadi. Hazrat Jaloliddin Rumiyni "Asling kabi ko'rin yoki ko'ringaning kabi bo'l" iborasi ayni haqiqatdir.

Bu borada tarixiy asarlarga nazar tashlasak, Yusuf Xos Hojibning mashhur asari «Qutadg'u bilig» (Baxtiyorlik ilmi) ham o'qituvchi, rahbar va ziyolilarning xulq-atvori va tashqi ko'rinishi haqida muhim fikrlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, asarda o'qituvchi va rahbarlarning tashqi ko'rinishi nafaqat ularning ichki go'zalligini, balki axloqiy mukammalligini ham ifoda etishi kerakligi qayd etiladi. «Qutadg'u bilig»da ilm ahli, ustozlar va rahbarlarning yuqori darajada axloqiy madaniyatga ega bo'lishlari jamiyatdagi tartib va adolatni ta'minlashda, shuningdek yosh avlod tarbiyasida asosiy rol o'ynashi ko'rsatilgan. Shu sababli, Yusuf Xos Hojib asari o'qituvchilarning xulq-atvori va tashqi ko'rinishi masalasiga katta e'tibor qaratgan muhim manba hisoblanadi.

Mahmud Qoshqariyning «Devonu lug'otit turk» asari¹ asosan turkiy tillar lug'ati va turkiy

¹ Mahmud Qoshqariy. Devonu lug'otit turk. - T.: Fan nashriyoti, 1960.

xalqlar madaniyati, adabiyoti hamda turmush tarziga bag'ishlangan bo'lib, u yerda o'qituvchi yoki ilm ahlining xulq-atvori va tashqi ko'rinishi masalasiga bevosita urg'u berilmagan. Biroq, ushbu asar ichida keltirilgan maqollar, hikmatlar va axloqiy o'gitlarda axloq, odob-axloq me'yorlari, rahbar va ilm ahlining shaxsiyati haqida ko'plab foydali ma'lumotlar topish mumkin.

Mahmud Qoshqariy asarida keltirilgan bu kabi maqolalar, hikmatlar va turkiy xalqlarning axloqiy qadriyatlari o'qituvchi va ilm ahlining xulq-atvori, odobi va madaniyati to'g'risida qadimdan mavjud bo'lgan tushunchalarni yoritadi. Garchi «Devonu lug'otit turk» asosan lug'at va tilshunoslikka bag'ishlangan bo'lsa-da, unda keltirilgan axloqiy hikmatlar o'qituvchining xulq-atvori va tashqi ko'rinishi qanday bo'lishi kerakligi haqida ham muhim ma'lumotlar beradi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asari¹ – axloqiy tarbiya, hayotiy tajribalar va nasihatlar to'plamidan iborat bo'lib, unda ustoz-shogird munosabatlari, xulq-atvor, axloqiy qadriyatlar va insonning jamiyatdagi o'rni keng yoritilgan. Asarda o'qituvchi va shogird o'rtasidagi munosabatlar haqida muhim pand-nasihatlar berilgan bo'lib, unda ustozlarning shaxsiyati, shogirdlarga ko'rsatadigan axloqiy namunalari, odobi va madaniyati haqida mulohazalar yuritiladi.

Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asari² axloq, odob-axloq qoidalari va insonning jamiyatda tutgan o'rni haqida muhim fikrlarni o'z ichiga oladi. Ushbu asar axloqiy va ma'naviy tarbiya masalalarini yoritgan eng mashhur ma'naviy-falsafiy asarlardan biri hisoblanadi. Asarda o'qituvchilar, rahbarlar va ilm ahli uchun zarur bo'lgan axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari haqida muhim pand-nasihatlar beriladi.

Koshifiyning asari o'qituvchi va ilm ahlining axloqiy fazilatlarini, xulq-atvori va tashqi ko'rinishiga katta e'tibor qaratadi. U o'qituvchi va rahbarlar shaxsiyati orqali jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va axloqiy qadriyatlari rivojlanishini ta'kidlaydi.

«Axloqi Muhsiniy» asarida Husayn Voiz Koshifiy o'qituvchi va ilm ahlining axloqiy fazi-

¹ Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2019.

² Husayn Voiz Koshifiy. "Axloqi Muhsiniy", "Futuvatnomai sultoniy". - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 1994

latlari, tashqi ko'rinishi va xulq-atvori orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatishi haqida chuqur mulohazalar bildiradi. Ushbu asarda keltirilgan g'oyalar o'qituvchilarning faqat bilim beruvchi emas, balki yosh avlodning ma'naviy va axloqiy tarbiyachisi sifatida ham muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Koshifiyning fikrlariga ko'ra, ilm ahli va ustozlarning yaxshi odobi va namunaviy qiyofasi jamiyatning axloqiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Shuningdek, XIX-XX asrlarda yashagan jadid mutafakkirlarimiz ham bu borada fikrlarini misol keltiramiz, **Mahmudxo'ja Behbudiy** o'z asarlarida³ xalqni ilmiy qilish, yangi usul maktablari tashkil etish, shuningdek, o'qituvchilarning xulq-atvori va tashqi ko'rinishining o'quvchilarga va jamiyatga qanday ta'sir qilishini keng yoritib beradi.

Uning **«Padarkush» dramasida** – Bu asar ma'rifat va ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini aks ettiradi. Asarda farzandning noto'g'ri tarbiya olishi va ilmga bo'lgan beparvoligi uning fojiali hayotiga olib keladi. Ushbu asarda Behbudiy o'qituvchilar va ota-onalarning xulq-atvori va tarbiyada qanday o'rnak bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Ustozlarning tarbiyaviy ahamiyati, ularning nafaqat bilim, balki shaxsiy namunasi orqali ham yosh avlodga ta'sir ko'rsatishi kerakligi ko'rsatiladi. Uning **«Maorif masalasi» maqolasi** – Behbudiyning bu maqolasida o'qituvchilar va ularning tarbiyaviy vazifalari keng yoritiladi. Behbudiyga ko'ra, o'qituvchining xulq-atvori, madaniyati va tashqi ko'rinishi yoshlarning kelajakdagi ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Behbudiyning fikriga ko'ra, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy yetakchi sifatida ham xizmat qilishi kerak.

Abdulla Avloniy – o'zbek adabiyoti va pedagogikasining taniqli vakili, ma'rifatparvar jadidlar harakatining yetakchilaridan biri bo'lib, uning asarlarida o'qituvchining roli, xulq-atvori va tashqi ko'rinishi mavzusi keng o'rin olgan. Avloniyning ta'lim va tarbiya sohasidagi qarashlari, ayniqsa, **«Turkiy guliston yohud axloq» asarida**⁴ chuqur tahlil qilingan.

³ Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush. - T.: Adib nashriyoti, 2000.

⁴ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2013

Yana bir mutafakkirimiz **Abdulla Avloni-ning** asarlarida o'qituvchining xulq-atvori va tashqi ko'rinishi bo'yicha «**Turkiy guliston yohud axloq**» asarida axloqiy tarbiya va odob masalalariga katta e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarga o'rnak bo'luvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishi kerak. Avloniy o'qituvchining xulq-atvori va tashqi ko'rinishi o'quvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. O'qituvchining shaxsiy namunasi o'quvchilarning hayotiy qarashlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Avloniyni so'zlariga ko'ra, "Inson uchun eng oliy maqsad – yaxshi fazilatlar bilan ziynatlanishdir." O'qituvchi shu oliy fazilatlarini o'zida jamlashi, ulug' axloqiy qadriyatlarni hayotiy namuna orqali ko'rsatishi kerak. Bunda uning xulq-atvori, madaniyati va tashqi ko'rinishi ham o'quvchilar uchun o'rnak bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temur ham o'zining «Temur tuzuklari» asarida davlat boshqaruvi, rahbarlik va axloqiy qoidalarga katta e'tibor qaratadi. Unda hukmdor va yetakchilarning shaxsiy fazilatlarini, ularning xulq-atvori va tashqi ko'rinishining nafaqat o'z yaqinlariga, balki butun xalqqa qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ko'plab pand-nasihatlar bor. Amir Temur hukmdor va rahbarlar uchun qat'iy axloqiy qoidalarni belgilab, ular xalqqa namuna bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi. Rahbarlar xalq oldida o'zini munosib tutishi, odil va halol bo'lishi lozim. Amir Temur rahbarlarning tashqi ko'rinishiga ham katta e'tibor qaratadi. Ular o'z qiyofasi bilan hurmat qozonishi, jiddiy va tartibli bo'lishi, shuningdek, oddiy xalq bilan o'ziga xos aloqani saqlab turishi lozimligini ko'rsatadi.

Yana bir davrni misol qilsak, allomamiz **Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari**¹ axloqiy va falsafiy pand-nasihatlar bilan to'la bo'lib, bu asarda odamlarning xulq-atvori, odob-axloqi, shuningdek, ustoz va rahbarlarning jamiyatdagi o'рни haqida chuqur fikrlar bayon qilingan. Navoiy bu asarda odob-axloqning eng oliy qadriyat ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, rahbarlar va ustozlar jamiyat uchun odob va madaniyat namunasi bo'lishi kerak. O'quvchilarning axloqiy rivojlanishi bevosita o'qituvchining shaxsiy fazilatlariga bog'liq.

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2016

Xulosalar.

O'qituvchining xulq-atvori, tashqi ko'rinishi va shaxsiy madaniyati ta'lim jarayonida o'quvchilarning axloqiy, ma'naviy va intellektual rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishini biz tarixiy davrlarga yondashgan holda o'rganib chiqdik. Shunday ekan Tadqiqot davomida o'rganilgan materiallar va tahlillar asosida quyidagi xulosalar keltiriladi:

1. O'qituvchining xulq-atvori va odob-axloqi – o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki ma'naviy rahbar sifatida ham o'quvchilar hayotida markaziy o'rinni egallaydi. Ustozning xulq-atvori, odobi va shaxsiy fazilatlarini o'quvchilarda o'ziga xos qiziqish va e'tirof uyg'otadi. O'qituvchi axloqiy fazilatlarini namoyon etish orqali yosh avlodga shaxsiy o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, pedagoglar o'z xulq-atvorida halollik, adolat, mehribonlik va madaniyatlik kabi ijobiy fazilatlarini aks ettirishlari lozim.

2. O'qituvchining tashqi ko'rinishi va o'ziga xosligi – o'quvchilar o'z o'qituvchilariga hurmat bilan qarashadi va ularning tashqi qiyofasi ham bu jarayonga ta'sir qiladi. O'qituvchining gigiyenaga rioya qilishi, estetik didi va toza, tartibli kiyinish odobi nafaqat o'quvchilarning unga bo'lgan hurmatini oshiradi, balki o'zini qanday tutish, qanday kiyinish va o'z tashqi ko'rinishini qanday shakllantirish borasida ham ma'naviy yo'nalish beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining tashqi ko'rinishi, qiyofasi va o'zini tutish madaniyati o'quvchilar psixologiyasiga ham bevosita ta'sir qiladi, ularda motivatsiya va darslarga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

3. Ustoz-shogird munosabatlari – ushbu tadqiqot davomida ustoz-shogird munosabatlari zamonaviy ta'limda qanday ahamiyatga ega ekanligi keng tahlil qilindi. Ustoz shogirdga nafaqat bilim beradi, balki ularni jamiyatga foydali insonlar qilib tarbiyalaydi. Ustoz shogirdga hurmat va e'tibor ko'rsatishi, shogird esa ustoziga ixlos bilan munosabatda bo'lishi lozim. Ushbu ikki tomonlama munosabatning to'g'ri shakllanishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, shuningdek, o'quvchilarning ma'naviy jihatdan kamol topishiga xizmat qiladi. O'quvchi o'z o'qituvchisidan faqat bilim emas, balki insoniy fazilatlar, madaniyat va odob-axloq qoidalarni ham o'rganadi.

4. O'qituvchining shaxsiy madaniyati va kasbiy mahorati – ta'lim jarayonida o'qituvchining madaniyati va kasbiy mahorati o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. O'qituvchi bilimdon va mahoratli bo'lishi bilan bir qatorda, shaxsiy madaniyat va pedagogik etikaga ham amal qilishi kerak. Kasbiy axloq va pedagogik madaniyat, o'z navbatida, o'quvchilarda hurmat va ishonch uyg'otadi, bu esa o'quvchilar motivatsiyasining oshishiga va ta'lim jarayonining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Zamonaviy ta'limda axloqiy tarbiya va madaniyatning roli – tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining xulq-atvori va madaniyati faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki

o'quvchilarni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi yosh avlodga qanchalik yaxshi namuna ko'rsatsa, jamiyatda axloqiy qadriyatlar va ma'naviyat yuksalishi shunchalik kuchli bo'ladi.

Umumiy xulosa shuki, o'qituvchining xulq-atvori, tashqi ko'rinishi va shaxsiy madaniyati ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu omillar o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishida, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda va ta'limning umumiy samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Shu sababli, o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini va tashqi qiyofasi zamonaviy ta'lim tizimida yanada chuqurroq o'rganilishi va e'tiborga olinishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so'zi gazetasi. 2024 yil 1-oktabr, 201 (8824). www.xs.uz
2. Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asari. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2008 yil.
3. Abdurauf Fitrat. «Oila» asari. "Ma'naviyat" nashriyoti. Toshkent. 1998 yil.
4. Alisher Navoiy. «Mahbub ul-qulub» asari. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2018 yil
5. Mahmud Qoshqariy. Devonu lug'otit turk. - T.: Fan nashriyoti, 1960
6. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2019
7. Husayn Voiz Koshifiy. "Axloqi Muhsiniy", "Futuvatnomai sultoniyy", "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 1994
8. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush. - T.: Adib nashriyoti, 2000.
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2013
10. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2016